

## **UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'ATNING IFODAVIY VOSITALARI TARBIYAVIY JIHATI**

Jumanazarova Gozal Xudaynazar qizi

Xorazm viloyati Urganch tumani 33-sonli maktabi tasviriy sa'nat o'qituvchisi

Hayitboyeva Muqaddas Bekpo'latovna  
tarbiya fani o'qituvchisi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada umumta'lismaktablarida tasviriy san'at fanining, umumiylar o'rta ta'lismaktablarida tasviriy san'atning ifodaviy vositalari o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at fani, rangshunoslik, perspektiva, kompazitsiya, amaliy me'morchilik

Umumiylar o'rta ta'lismaktablarida tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Tasviriy san'at o'quv predmeti har har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak boladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. O'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarining vazifalari haqida to'xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bolish mumkin.

1.Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos,maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushinish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyanı rivojlantirish; tasviriy san'atning nazariy asoslari (yorug', soya, rangshunoslik, perspektiva, kompazitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurishyasash yuzasidan elementlar,



malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarini, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me'morchilik san'at asarlarini tushungan holda o'qiy olishga o'rgatish; san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish uni qadrlashga, sevishga o'rgatish. 2.Tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari,ular; borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirish; bolalarga axloqiy (vatanparvarlik, baynalminnal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo'llash. Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o'qitiladigan deyarli barcha o'quv predmetlari bilan bog'lanadi va ular yuzasidan materiallarni o'zlashtirishga samarali ta'sir korsatadi. Ayniqsa u o'qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at, hattoki, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo'lsada u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

## Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig'indisini o'zlashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga oz bilimlarini mustaqil ravishda toldirib va boyitib borishni, ozining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o'rgatish kerak. Bu vazifa o'quvchilarning tasviriy san'at darslarini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog`liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.B.Z. Azimova "Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi "Toshkent – O'qituvchi-1984. [97]
2. B.Z.Azimova ,R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy sanatga oid atamalarning izohli lugati.Toshkent -1994.
3. S. Abdiraulov Tasviriy sanat atamalari. Toshkent- 2003

**Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**  
Hosted online from Toronto, Canada.

**Date:** 5<sup>th</sup> February, 2023

**ISSN:** 2835-5326

**Website:** econferenceseries.com

4. X.Egamov.Boyoqlar bilan ishlash. –Toshkent . “O’qituvchi”1981.
5. R. Hasanov.”Maktabda tasviriy sanat oqitish metodikasi”Toshkent. “Fan”.2004.
6. [www.aexiv.uz](http://www.aexiv.uz)



# E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

E- CONFERENCE  
SERIES